

## 1-2 darslar. Konsertga boramiz

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarda konsertlar haqida tushuncha shakllantirish;
- o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish.

Ta'lim natijalari:

- o'quvchilar konsertlar, konsert zallari va musiqiy an'analar haqida tasavvurga ega bo'ladilar;
- o'quvchilar konsert zalida o'zini tutish madaniyati haqida bilgilariga ega bo'lishadi;
- o'quvchilar orkestrda musiqa asboblari guruhlarining joylashuvi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

**Zaruriy vositalar:** darslik, oddiy musiqa asboblari (zarbli), notalar shtili bilan tasvirlangan kartalar.

### Birinchi soat

#### Kirish (5 min.).

O'qituvchi o'quvchilarni kutib oladi, davomatni tekshiradi va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.

1. O'tgan yili o'rganganlaringizdan nimalarni eslab qolgansiz?
2. Esingizda qolgan musiqa asboblarning nomlarini aytинг.
3. Qanday musiqaviy kasblarni ayta olasiz?

#### Nazariy qism (5 min.).

O'qituvchi o'quvchilarga konsert zallari va repertuar haqida gapirib beradi.

#### Bilimlar kvanti.

**Konsert** – belgilangan, oldindan tuzilgan dastur bo'yicha ommaviy ijro etiladigan musiqiy asarlar, balet, estrada tadbiri.

«**Xalqlar do'stligi**» saroyi – bu yerda respublika xalq artistlari va musiqiy ansamblarining konsertlari, xorijiy guruhlar va ijrochilarning konsert turlari va chiqishlari o'tkaziladi.

#### Amaliy qism (5 min.).

Tushuntirgandan keyin murabbiy quydagi savollarni berib chiqadi:

1. Qaysi konsert zallari sizga tanish?
2. Siz biron bir konsertda bo'lganmisiz?

#### Nazariy qism (5 min.).

#### Bilimlar kvanti.

**Konservatoriya** – klassik musiqa oliy ta'lif muassasasi. Musiqa ta'limining barcha yo'nalishlari bo'yicha konsert ijrochilari, kompozitorlar, musiqashunoslarni tayyorlaydi.

O'zbekiston davlat konservatoriysi mamlakatning eng yirik musiqa oliv o'quv yurtidir. Konservatoriya binosida turli yo'nalishdagi musiqiy san'at asarlari ijro etiladigan to'rtta zal mavjud. Konservatoriya repertuariga o'quv konsertlari, shuningdek, Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada-simfonik orkestri, «Turkiston» orkestri va O'zbekiston davlat akademik xalq cholg'u asboblari orkestrining dasturlarları kiradi.

#### **Amaliy qism (15 min.).**

##### **Kichik guruhlarda amaliyot. "Musiqiy ansambl" mashqlari.**

Sinf kichik guruhlarga bo'linadi (har birida 5 kishi). Kichik guruh istalgan musiqa asarini tanlaydi. Keyin har bir guruh a'zosi cholg'u asbobini (daf, doiru, marakas, nog'ora), zarbli asbobni (qo'l, oyoq, barmoqlar) yoki ovoz chiqarishning vokal usulini (hushtak chalish yoki boshqa ovoz bilan ijro etilish) tanlaydi. Har bir kichik guruhga o'zlarini uchun tanlangan musiqa asboblari yoki vokal rejimlari yordamida tanlangan asarni ijro etishga tayyorgarlik ko'rish uchun bir necha daqiqa beriladi. Keyin kichik guruhlar navbatma-navbat o'z musiqalarini ijro etishadi

#### **Yakuniy qism (5 min.).**

**Mustaqil ish uchun topshiriq.** Kattalar yoki Internet yordamida "Shahrimdag'i konser zallari repertuarini" mavzusida kichik tadqiqot o'tkazish.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarga natijalarini baholash uchun notalar tasviri tushirilgan kartochkalar yordamida o'z yutuqlarini baholashni taklif qiladi: yoqdi – notaning shtilini yuqoriga ko'rsatish, yoqmadi – shtilni pastga ko'rsatish.

#### **Ikkinci soat**

**Zaruriy vositalar:** darslik, gadget, notalar bilan shtil' tasvirlangan kartochkalar.

#### **Kirish (5 min.).**

O'qituvchi o'quvchilarini kutib oladi, davomatni tekshiradi va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.

1. Repertuar nima?
2. Konser dasturlarini o'tkazish joylari nima deb ataladi?
3. Qaysi ta'lim muassasasi musiqiy ixtisoslik bo'yicha ta'lim olish imkonini beradi?

#### **Nazariy qism (5 min.).**

O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda konser zalida o'zini tutish qoidalarini o'qib, muhokama qiladilar.

#### **Amaliy qism (5 min.).**

Muhokamadan so'ng o'qituvchi savollar beradi:

1. Orkestr nima?
2. Simfonik orkestr tarkibiga qaysi asboblari kiradi deb o'ylaysiz?
3. Orkestrda o'ynash uchun qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish kerak?

#### **Nazariy qism (5 min.).**

##### **Bilimlar kvanti.**

Orkestrga dirijyor rahbarlik qiladi. U kompozitorning ijrosini – musiqaning ohangini – diqqat bilan tashkillashtiradi. U ijrochilar bilan asarni mashq qiladi va qo'l harakatlari orqali qaysi asbob qachon chalinishi, tez yoki sekin, baland yoki past ovozda ijro etilishi kerakligini ko'rsatib turadi. Ansamblning umumiy ohangi va uning o'ziga xosligi ko'pincha dirijorning ishiga bog'liq.

Musiqachilar notalar bo'yicha ijro etishadi. Dirijorda esa partitura bor – orkestrdag'i har bir cholg'u asbobi uchun nota yozuvni.

Simfonik orkestr boy musiqiy imkoniyatlarga ega. Unga turli xil asboblari kiradi, odatda ular guruhlarga ajratib tashkil qilinadi. Bitta guruhdagi musiqachilar sahnada yonma-yon o'tirishadi.

### **Amaliy qism (15 min.).**

O'quvchilar «Orkestr» rasmini ko'rib, muhokama qilishadi, uni AR — sun'iy reallik ilovasi yordamida jonlantirish mumkin.

Shundan so'ng sinf "orkestrga" aylanadi. O'qituvchi sinfni simfonik orkestr musiqachilarini joylashgan tartibda o'tkazadi. Birinchi partalarda – birinchi skripkalar va violonchellar, ikkinchi partalarda – ikkinchi skripkalar va altolar. Uchinchi partalar – yog'och va puflama cholgi asboblari, to'rtinchи partalar – zarbli asboblar va royal. O'qituvchi o'quvchilarga qo'llari yordamida, belgilangan asboblardagi ijrochilarga taqlid qilishni taklif qiladi, qaysi asboblar guruhi hozirgi vaqtida o'z partiyasini ijro etayotgani ko'rsatiladi. Bunday "mashg'ulotdan" so'ng o'quvchilar orkestri, internetdagi o'quvchilar tomonidan tanlangan asarni, o'qituvchi-dirijyor boshchiligidagi ijro etadi (masalan, M.P. Musorgskiyning "Ko'rgazmadan suratlar").

### **Yakuniy qism (5 min.).**

O'qituvchi savollar beradi:

1. Dirijyor qayerda joylashgan?
2. Simli torli, puflab chalingan, urib chalinadigan asboblar guruhlari qayerda joylashgan?
3. Rasmdagi sizga tanish bo'lgan yana qanday musiqiy asboblarni ko'rdingiz?

**Mustaqil ish uchun topshiriq.** Rasmda sizga notanish bo'lgan asboblar haqida ma'lumot toping.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarga natijalarini baholash uchun notalar tasviri tushirilgan kartochkalar yordamida o'z yutuqlarini baholashni taklif qiladi: yoqdi – notaning shtilini yuqoriga yo'naltirish, yoqmadi – shtilni pastga yo'naltirish.

## **3-dars. Kim dunyoda hammadan mehribon (qo'shiq) Vatanjonim – Vatanim! (qo'shiq)**

### **Darsning maqsadi:**

- o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish;
- o'quvchilarda vatanparvarlik hislarini va o'qituvchilarga hurmatli munosabatni rivojlantirish.

### **Ta'lim natijalari:**

- o'quvchilarning qo'shiqlarni to'g'ri ijro etish haqidagi tushunchalarini kengaytirish;
- o'quvchilarning vokal ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'quvchilarda vatanparvarlik hislarini va o'qituvchilarga hurmatli munosabatni rivojlantirish.

**Zaruriy vositalar:** darslik, gadjet.